

JAHONDAGI AYRIM MAMLAKATLAR ISLOMIY MOLIYA BOZORI
RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Saidakbarxo'ja Yo'ldoshxo'jaev

*Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti magistranti*

Saidusmonxo'ja Yo'ldoshxo'jaev

*Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti magistranti*

Annotasiya: *Ushbu maqolada islomiy moliya tizimining mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sirini musulmon iqtisodchilar tomonidan o'rganishga doir ilmiy mulohazalar bayon etilgan va u islomiy moliya bozorining 2021 -2022 yillarda barqaror rivojlanish omillari hamda o'zgarishlar sur'atini aks ettirishga bag'ishlangan. Turli hududlardagi islomiy moliya tizimining holati tahlil etilgan. O'zgarishlar sabablari ko'rsatilib, sharh qilingan. Dunyoning yetakchi mamlakatlarida islomiy moliya tizimini tashkil etish bo'yicha qonunchilikka kiritilgan tuzatishlar samaradorligi tadqiq etilgan.*

Kalit so'zlar: *islomiy moliya, islomiy banklar, sukuk, qonunchilik asosi, iqtisodiy o'sish, islom depozitlari, yalpi milliy mahsulot.*

KIRISH

Islomiy moliya muassasalari tashkil etilishining dastlabki bosqichlarida takdim etiladigan moliyaviy xizmatlar ularni omonatlar tomon yetaklagan. Musulmon omonatchilarning ulkan madadi islomiy moliya muassasalarida ham ortiqcha mablag'lar bilan boglik muammolarning paydo bo'lishiga olib keldi. Investisiyaviy faoliyatga nisbatan shariat talablari tufayli islomiy moliya muassasalari ba'zan pul mablag'larini kerakli tarzda ishlata olmas edi. Ular bo'sh turgan mablag'larni investisiya qila olmagan, bu esa investisiyalardan daromad olish imkoniyatini yo'qqa chiqargan.

An'anaviy tizimda yaratilgan mexanizm moliya muassasalariga bo'sh turgan mablag'larni, mazkur mablag'larga extiyoji mavjud moliya muassasalariga qarzga berishga imkon yaratadi. Shuningdek, foydalanish mumkin bo'lgan turli moliya vositalari moliya muassasalariga kapital quyilmalarni joylashtirish imkonini beradi. Moliyaviy tizim o'zining vositachiligi tufayli kapital mablag'lar to'g'ri taqsimlanishi orqali iqtisodiy taraqqiyotni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Islom moliyasi ham an'anaviy moliyaviy tizimning muqobili sifatida yashovchanligini ko'rsatdi va bozordagi o'z ulushini muttasil oshirib bormoqda.

Hozirgi vaqtda dunyoning 90 dan ortiq mamlakatida 1850 dan ortiq islomiy moliya muassasalari ishlab turibdi. Mutaxassislar yaqin kelajakda ham islomiy moliya sanoati jiddiy o'sish ko'rsatkichlarini saqlab qolishini taxmin qilishmoqda. Islomiy moliyaviy aktivlarning asosiy qismi Fors ko'rfazi mamlakatlari va Janubiy -Sharqiy Osiyo hududi hamda Eron hisobiga to'g'ri keladi. G'arbdagi rivojlangan mamlakatlar Buyuk Britaniya, AQSh, Lyusemburg va boshqalarda ham islomiy moliya sanoati moliya bozorida o'zining munosib o'rnini egallamoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

XX asrning yakuniga kelib, islom moliyasining barqaror rivojlanishi moliyaviy dunyoda yangi munozaralarni paydo qildi. Bir nechta tadqiqotlar islom moliya muassasalarining samarali va barqaror ekanligi, aktivlari sifati yuqoriligi, xarajatlar va xatarlarni kamaytirish jihatidan samarali ekanini ko'rsatdi.

Islom moliyasi nazariy asoslari xorij iqtisodchi olimlar: Ch.Martin, M.Li, A.Trakik, A.Asqar, M.Ali, S.Xorun, M.Moxtar, M.Siddiqiy, V.Zuhayliy, M.Ibrohim, U.Oseniy, M.Usmoniy, B.Xasnan, A.Majid, X.Kabir, M.Choudxuri, A.Jarrox, N.Xachicha, J.Buxatemlar tomonidan o'rganib chiqilgan.

M.Choudxuri va boshqalar (2018)lar nashr etgan "Bangladeshning iqtisodiy o'sishi va xatarlarni taqsimlash hamda xatarlarni taqsimlamasdan moliyalashtirish o'rtasidagi aloqa" nomli maqolada Bangladeshning, A.Majid va boshqalar (2015) tomonidan nashr etilgan "Islomiy moliyaning iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholash" nomli maqolasida Malayziyaning iqtisodiy sharoitida islomiy bankchilik va iqtisodiy o'sish o'rtasida ijobiy va davomiy aloqadorlik borligini ko'rib chiqqanlar. Ular islomiy depozitlar yalpi milliy mahsulotning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini xulosa qilganlar.

Bundan tashqari J.Buxatem va boshqalar (2018) "Islomiy banklarning YaMM o'sishiga ta'siri: Shimoliy Afrika va Yaqin Sharqning ayrim mamlakatlari misolida" maqolasida mazkur hudud mamlakatlarida islomiy moliya uzoq muddatli istiqbolida aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaMMning o'sishiga olib kelishini aniqlagan. Mazkur hududdagi 13 ta mamlakatning 2000 - 2014 - yillardagi yillik ma'lumotlardan foydalangan holda yuritilgan tahlil, islomiy moliya va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi ijobiy aloqadorlikka kuchsiz muassasaviy asos ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ko'rsatdi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani tayyorlashda ilmiy nashrlarda, halqaro hisobotlarda chop etilgan turli maqolalar, ma'lumotlar va sharhlardan foydalanilgan. Mazkur ma'lumotlarning aksariyati islomiy moliya bozoriga tegishli hisoblanadi. Maqolada jamlangan ma'lumotlar asosida, islomiy moliya bozorining rivojlanishi o'tgan davr ma'lumotlari bilan taqqoslangan, xulosa va taxminlar bayon etilgan. Statistik ma'lumotlar aniq va ishonchli manbalardan olingan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Islomiy moliyaviy aktivlar 2022 yilda ham yuqori o'sish sur'atlarni namoyon etdi(1-jadval) va uning ko'lami 4,508 mlrd.dollargacha yetdi, bunga uchta tarmoq, xususan, islomiy bankchilik, islomiy fondlar va islomiy kapital bozori tarmoqlaridagi o'sish hisobiga erishildi.

1-jadval¹⁶

2022 yilda islomiy moliya aktivlarining taqsimoti

Tarmoqlar	Hajmi (mlrd.AQSH dollarida)	Islomiy moliyaviy aktivlardagi ulushi	Muassasalar/ Vositalar soni
Islomiy banklar	3,244	72%	610
Sukuk	788	17%	4,820
Boshqa islomiy moliya muassasalari	167	4%	917
Islomiy fondlar	220	5%	2,233
Takoful	89	2%	344

Islomiy moliya sanoati aktivlarining 71,9%i islomiy banklarga to'g'ri keladi va 2022 yil davomida 11,7%ga o'sdi hamda uning salmog'i 3244,0 mlrd.dollarga yetdi.

Islomiy moliyaviy aktivlarning 82%i 5 ta mamlakatga to'g'ri keladi(2-jadval). Dastlabki o'ntalikdagi mamlakatlarda esa tarmoq aktivlarining 95%i joylashgan. 2022 yilda o'sish yuqori bo'lgan mamlakatlar qonunchilik nisbatan yaqinda qabul qilingan Shimoliy Afrika hamda Markaziy Osiyo davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.

2- jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, jahonning eng yirik islomiy moliya bozori Eron va Saudiya Arabistonida joylashgan. Malayziya ham o'zining ko'lamli islomiy moliya bozori bilan mintaqada yetakchilik qilib kelmoqda. Jahondagi 56 ta mamlakatda hech bo'lmaganda islomiy moliyani tartibga solish bo'lish bo'yicha qonunchilik qabul qilingan.

2-jadval¹⁷

2022 yilda islomiy moliyaviy aktivlar yetakchi mamlakatlar bo'yicha .

Mamlakatlar	Aktivlar(mlrd.dollarda)
Eron	1522
Saudiya Arabistoni	1017
Malayziya	666
BAA	277
Quvayt	208
Jami:	3690

1300 dan ortiq shariat olimlari 54 ta mamlakatda islomiy moliya muassasalarini taqdim etib kelmoqda. Jaxonning 20 ta mamlakatida esa markazlashgan Shariat kengashlari faoliyat yuritmoqda.

2021 yilda Fors ko'rfazidagi mamlakatlar islom banklari jami aktivlari butun jahondagi 100 ta yirik islom banklari jami aktivlarining 60%idan ortig'ini tashkil etdi. Jahondagi islom banklarining 21,9 foiz aktivlari Saudiya Arabistoniga to'g'ri keladi hamda Al-Rajhi banki

¹⁶ Global Islamic Liquidity Management Report 2023 ma'lumotlari asosida tayyorlandi

¹⁷ Global Islamic Liquidity Management Report 2023 ma'lumotlari asosida tayyorlandi

dunyodagi eng yirik islom ulgurji banki hisoblanadi. Ushbu bank aktivlar salmog'ini 2021 yilda 166,0 mlrd.dollarga yetkazdi va barqaror depozit bazasiga ega bo'lib qolmoqda.

Qatar Islom banki eng yaxshi korporativ islom banki bo'lib qodi, uning aktivlari 2021 yilda 11 foizga ortib, 53,0 mlrd.dollarga yetdi.

Janubiy Sharqiy Osiyo hududidagi mamlakatlar Malayziya(278,0) hamda Indoneziya(46,0)da ham islomiy banklar aktivlari katta salmoqqa ega hisoblanadi va islomiy moliya aktivlarining aksariyat qismi ularning ulushiga to'g'ri keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Islom moliyasi sanoati AQSh, Kanada va Avstraliyada iste'mol hamda korporativ tarmoq, Fors ko'rfazi mamlakatlaridan investisiyalarni jalb etish maqsadida faol rivojlanmoqda. Islom moliyasi markazi sifatida London salmoqli yutuqlarga erishdi, 2021 yilda Buyuk Britaniya islom banklari aktivlari 7,5 mlrd.dollarni tashkil etdi, jahondagi islom banklari aktivlarining 0,3 foizi ushbu mamlakatga to'g'ri kelmoqda. London fond birjasida 68 ta sukuk listingi mavjud bo'lib, ular orqali 50 mlrd.dollardan ortiq mablag' jalb etildi.

Shu bilan birgalikda ayrim xulosalarni keltirib o'tmoqchimiz:

1. Islom moliyasi alohida tarmoq sifatida shakllanib bo'lgan. An'anaviy moliyaviy tizimdan asosiy farqi – pulga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi, mablag' egasi amaliy faoliyatda ishtirok etsagina, pul kapitalga aylanadi.

2. Moliyaviy tizim sifatida islom moliyasi ribo, g'orar, maysirdan holi bo'lishi kerak, munosabatlar asosi moddiy(real) qimmatliklar mavjud bo'lishini taqozo qiladi. O'tkaziladigan amaliyotlar Shariat kengashlari tomonidan nazorat qilib boriladi.

3. Islom moliyasi musulmon mamlakatlardan tashqarida ham rivojlanib kengaydi, Buyuk Britaniya buning yorqin misolidir. Bu yerda tartibga solishning o'ziga xos bo'lgan usullaridan foydalanildi.

4. Islom Taraqqiyot banki huzuridagi halqaro tashkilotlar tizimni samarali ishlashi uchun tashkil etilgan. Islom moliya muassasalari korxonalar ustav kapitalida ishtirok etish orqali ishlab chiqarishda ishtirok etadi. Muvofiq qonuniy asos yaratilgani sababli, islom moliyasi ko'lami 2022 yilda ham 11,7 foiz o'sishga erishdi.

5. Jahondagi moliyaviy inqirozlar tizimning muammolarini yuzaga chiqardi. Lekin islom moliyasi qoidalari bo'yicha ishlagan banklar inqirozdan kam yo'qotishlar bilan chiqqani ma'lum bo'ldi. Faoliyatning islom talabiga muvofiqligi va xatarlarni oldini olishning o'ziga xos shakllari tufayli uning ommabopligi oshdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Chowdhury, Mohammad Ashraful Ferdous, Chowdhury Shahed Akbar, and Mohammad Shoyeb. 2018. Nexus between . risk sharing vs non-risk sharing financing and economic growth of Bangladesh. Managerial Finance 44: 739–58.

2.Abd. Majid, M. Shabri, and Salina H. Kassim. 2015. Assessing the contribution of Islamic finance to economic growth. Journal of Islamic Accounting and Business Research 6: 292–310.

3.Hachicha, Nejib, and Amine Ben Amar. 2015. Does Islamic bank financing contribute to economic growth? The Malaysian case. *International Journal of Islamic and Middle Eastern Finance and Management* 8: 349–36.

4.The-Banker-s-Top-Islamic-Financial-Institutions-2023

5.Islamic Banking Act passed in the Philippines”, ZICO Law, November 25, 2019